

XVI ASR BUXORO XONLIGI MADANIY HAYOTINING UMUMIY JIHATLARI

Jo`rabyov Sanaqul

JDPI Tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Mirzayev Bekzod

*tarix va uni o`qitish
metodikasi kafedra o`qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada shayboniyalar davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola vakillari, jumladan, Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, RustamSulton, Abdulazizzon, Abdulazizzon II va boshqa hukmdorlarning olib borgan madaniy faoliyatining umumiyligi jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zları: *Ma’naviyat, Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, Rustam Sultan, Abdulazizzon, Abdulazizzon II, “Shayboniynoma”, “Muzakkiri Ahbob”.*

Аннотация. В данной статье рассматриваются общие аспекты культурной деятельности представителей династии, в том числе Мухаммада Шайбани, Убайдуллохана, Рустама Султана, Абдулазизхана, Абдулазизхана II и других правителей, внесших непосредственный вклад в развитие культуры периода Шайбанидов.

Ключевые слова: *Манавият, Мухаммад Шайбани, Убайдуллохан, Рустам Султан, Абдулазизхан, Абдулазизхан II, Шайбанийнома, Музаккири Ахбоб.*

Annotation. This article discusses the general aspects of the cultural activities of the representatives of the dynasty, including Muhammad Shaibani, Ubaydullokhhan, Rustam Sultan, Abdulazizkhan, Abdulazizkhan II and other rulers, who directly contributed to the development of the culture of the Shaybanid period.

Key words: *Manaviyat, Muhammad Shaibani, Ubaydullokhon, Rustam Sultan, Abdulazizkhan, Abdulazizkhan II, Shaybaniynoma, Muzakkiri Ahbob.*

Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me’zonidir.

Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo insonni tushunish, anglash kerak¹. Buxoro tarixiga nazar tashlar ekanmiz, millatimizning XXV asrlik yo’lini ko’ramiz.

Buxuroning har bir qarich yeri , har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchanlik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilm-u marifat, manaviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo’lidan darak beradi².

Shayboniyalar davri madaniyatining rivojiga bevosita sulola vakillarining o’zlari sezilarli ta’sir ko’rsatdilar. Chunki sulolaning Muhammad Shayboniy, Ubaydulloxon, RustamSulton, Abdulazizzon, Abdulazizzon II va boshqa hukmdorlarning o’zlari o’qimishli kishilar bo’lishib, hatto she’riyatda qalam tebratganlar.

Bu davr madaniyatining asosiy xususiyati- diniy mafkuraning davlat mafkurasiga aylanganligidir.

Movarounnahrning ko’pgina shaharlarida masalan, Samarqand, Buxoro, Toshkent va boshqa shaxarlarida yangi madrasalar bunyod etildi. Mazkur madrasalarda nafaqat sof tiologik fanlar, balki axloqshunoslik, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, matematika va astronomiyaga oid bilimlar ham o’qitilgan³.

¹I.A.Karimov – “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”-2008-yil. 18-bet

²I.A.Karimov – “Xavfsizlik va barqarorlik yo’lida “- 1998-yil. 343-bet

³U.Qoraboyev , G’.Soatov –“O’zbekiston madaniyati”-2011-yil. 101-bet

XVI asrda mamlakatning turli markazlarida yuzlab olimlar, xusnixat egalari faoliyat ko'rsatganlar.

Birgina Buxoroning o'zida bir vaqtda o'nlab ilm va madaniyat namoyondalari ijod qilganlar. Ular orasida qomusiy ilm egalari ham bo'lган. XVI asrda tibbiyot sohasida ham asarlar yaratilgan. Chunonchi, Ko'chkunchixon va Abu Saidxon Zamonlarida yashagan mashhur tabib va olim Sulton Ali "Dastur al-iloy", "Muqaddimayi dastur al-iloy" risolalarini bitgan⁴.

Shayboniyxon hayotligi chog'ida yozilgan turli asar va manbalarda, shu qatorda Muhammad Solihning "Shayboniynoma", Fazlullox bin Ro'zbexonning "Mehmonnomayi Buxoro", Binoiyning "Shayboniynoma", Hasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri Ahbob" asarlarida Shayboniyxon davrida fan va madaniyat rivojlanganligi ko'rsatiladi⁵.

Shayboniylar ta'lim sohasida ham islohot o'tkazdilar. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni hokimiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zaruriyati sabab bo'ldi. Shayboniylar davrida fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib shiganligi ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'analarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishib chiqdi. Masalan Samarqand va Buxoro madrasalarida madarrislik qilgan mavlono Kamoliddin Ibrohim, Abdullaxonning mullimi xo'ja Muhammad, yulduzshunos Qiyomiddin Shaydo, Hakim Shaxrisabziy, Jarroh mavlono Baqo, Muhammad Mazid, mavlono Rofe, Muhammad Husayn va Shiroq Samarqandiy, Shohali Sulaymon, Abdulkarim ibn Sulton shular jumlasidandir⁶.

Shayboniylar davrida nafaqat hukmdorlar, balki o'z davrining ko'zga ko'ringan va moddiy imkoniyatga ega bo'lgan shaxslari ham ko'plab memoriy

⁴Azamat Ziyo –“O'zbek davlatchiligi tarixi”-2000-yil. 251-bet

⁵© Fayllar.org sayti

⁶Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov -“O'zbekiston tarixi”-2014-yil.

yodgorliklar qurbanlar. Bu davrda Samarqandda Muhammad Shayboniyxon qurdirgan xoniya, Abu Said nomli madrasalar, Buxoroda shahar davrining ta'mirlanishi, Mir Arab, Abdullaxon, Modarixon , Gavkushon, Muhammad Xo'ja Porso, Joybo'r, Ko'kaldosh, Qulbobo madrasalari, Abdullaxon timi, Toshkentda Ko'kaldosh va Baroqxon madrasalari va boshqa memoriy yodgorliklar qurilgan. Shuningdek, bu davr madaniy taraqqiyotining susayishiga, eng avvalo, Shayboniylarning qisqa muddatli bo'lsada, o'zaro taxt talashishlari ham ta'sir ko'rsatdi⁷.

Natijada XVI asrdan boshlab Movarounnahr va Xurosonda faoliyat ko'rsatgan ko'pgina olimlar, shoirlar, sa'natkorlar tinch joylarni izlab Eron va mo'tadil siyosat yurgizayotgan Boburiylar huzuriga – Hindistonga yo'l oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov – “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”-2008-yil. 18-bet
2. I.A.Karimov – “Xavfsizlik va barqarorlik yo'lida “- 1998-yil. 343-bet
3. U.Qoraboyev , G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil. 101-bet
4. Azamat Ziyo –“O'zbek davlatchiligi tarixi”-2000-yil. 251-bet
5. © Fayllar.org sayti
6. Q.Usmonov, U.Jo'rayev, N.Norqulov -“O'zbekiston tarixi”-2014-yil.
7. U.Qoraboyev , G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil. 101-106- Bet

⁷U.Qoraboyev , G'.Soatov –“O'zbekiston madaniyati”-2011-yil. 101-106- Bet